NAVOIY VILOYATI G‘OZG‘ON SHAHAR HOKIMINING
Q A R O R I

G‘ozg‘on shahar, Amir Temur k 1.

2021 - yil 31 - dekabr 57-5-210-Q/21 G'ozg'on shahar xokimligi

G‘ozg‘on shahar hududida yuridik shaxslarga tegishli transport vositalarini majburiy texnik ko‘rigini tashkil etish va uni o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi 125-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomning ijrosini ta’minlash maqsadida, shahar ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasining 2021-yil 30-noyabrdagi 24/10874-sonli xatini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Shahar hududidagi yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalari majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin.

2. Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha shahar komissiyasi tarkibi 1-ilovaga, texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Transport vositalari quyidagi davriylikka muvofiq texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin:

a) tijorat asosida yo‘lovchilar tashish uchun foydalaniladigan engil avtomobillar, avtobuslar va o‘tiriladigan joylari soni 8 ta va undan ortiq bo‘lgan (haydovchidan tashqari), odamlarni muntazam tashish uchun jihozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, og‘ir vaznli va xavfli yuklarni tashish uchun maxsus

transport vositalari va ularga tirkamalar-bir yilda ikki marta;

b) ishlab chiqilganiga olti yildan ko‘p bo‘lmagan (ishlab chiqarilgan yili shu jumlaga kiradi) transport vositalari (mazkur bandning “a” kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) - ikki yilda bir marta;

v) ishlab chiqilgan yilini hisobga olgan holda, ishlab chiqarilganiga olti yildan ortiq bo‘lgan transport vositalari, shuningdek, ishlab chiqilgan vaqti aniqlangan transport vositalari (mazkur bandning “a” kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) - bir yilda bir marta;

g) tirkamalar shatakchi transport vositasi uchun belgilangan muddatlarda ko‘rikka taqdim etiladi.

4. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligining ichki va soqchilik qo‘shinlari, Davlat xavsizlik xizmatining harbiy bo‘linmalari transport vositlari ko‘rsatib o‘tilgan idoralar tomonidan, belgilangan tartibda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish belgilanganligi inobatga olinsin.

5. Shahardagi yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalarining texnik ko‘rigi 1-yanvardan 31-dekabrgacha etib belgilansin.

6. Mazkur qarorning 3-bandi “a” kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalarini texnik ko‘rigi:

birinchi davr 2022-yilning 1-martdan 30-iyungacha;

ikkinchi davr 2022-yilning 1-sentyabrdan 31-oktyabrdagacha o‘tkazilsin.

Bu holatda mazkur transport vositalari ikkinchi marta ham texnik ko‘rikdan o‘tkazilganligi uchun yig‘im undiriladi.

7. Majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilganligi uchun quyidagi tartiblarda yig‘im undirilsin:

transport vositalari texnik ko‘rikdan o‘tkazilganligi uchun (mototransport, tirkamalar va yarim tirkamalardan tashqari) belgilangan miqdorda yig‘im undiriladi;

mototransport, tirkamalar, yarim tirkamalar texnik ko‘rikdan o‘tkazilganligi uchun belgilangan miqdorlarda yig‘im undiriladi;

Birinchi (oldingi) texnik ko‘rikdan “nosoz” deb topilgan transport vositalari takroriy texnik ko‘rikdan o‘tkazilganligi uchun belgilangan miqdorda yig‘im

undiriladi.

8. Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha shahar komissiyasi (O.Shodiyev)ga:

transport vositalarining texnik holati, ulardan foydalanish normalari va qoidalariga rioya etilishi ustidan samarali nazoratni tashkil etish;

transport vositalarining texnik holati va uskunalari yo‘l harakati xavfsizligi standartlari, qoidalari normalariga muvofiqligini baholash yuklatilsin.

9. Shahar IIB Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi (S.Qudratov)ga:

transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazish, texnika vositalarini sug‘urtalanganligi to‘g‘risidagi tegishli hujjatlar taqdim etilgandan so‘ng amalga oshirilishiga alohida e’tibor qaratish;

mulkchilik shaklidan qat’iy nazar, texnik ko‘rikdan o‘tgan har bir transport vositasini texnik ko‘rikdan o‘tganligi to‘g‘risida guvohnoma bilan ta’minlash vazifalari yuklatilsin.

10. Shahardagi barcha transport vositalari egalari bo‘lgan yuridik shaxslarga transport vositalarini texnik pasporti bilan birgalikda texnik ko‘rikdan o‘tkazilishini, ularning texnik jihatdan sozligini va o‘z vaqtida reja jadval asosida ko‘rikdan o‘tkazilishini ta’minlash topshirilsin.

11. Shahar IIB Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi (S.Qudratov) mazkur qaror ijrosini natijasi bo‘yicha 2022-yilning 10-oktyabriga qadar shahar hokimligiga yozma axborot taqdim etsin.

12. “Navqiron G‘ozg‘on” gazetasi tahririyati (E.Esanov) mazkur qaror “Navqiron G‘ozg‘on” gazetasida rasman e’lon qilinishini ta’minlansin.

13. Mazkur qaror rasman e’lon qilinganidan uch oydan so‘ng kuchga kiradi.

14. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari O.Shodiyev zimmasiga yuklatilsin.

Shahar hokimi **A.Bazarov**

Ғозғон шаҳар ҳокимининг
2021 йил 31 декабрдаги
57-5-210-Q/21-сон қарорига
1-илова

G‘ozg‘on shahar hududida yuridik shaxslarga tegishli transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha shahar komissiyasi

TARKIBI

№	F.I.O	LAVOZIMI
1	O.Shodiyev	Shahar hokimining kapital qurilish kommunikatsiyalar va kommunal xo‘jalik masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, *komissiya raisi*
2	S.Qudratov	Shahar IIB Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi boshlig‘i, *komissiya raisi o‘rinbosari*
3	Sh.Ashurov	Shahar hokimligi bosh mutaxassisi, komissiya a’zosi
4	A.Homidov	Shahar Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘limi boshlig‘i, komissiya a’zosi
5	B.Raximov	“O‘zavtodaryotrans” agentligi viloyat boshqarmasi bo‘limi boshlig‘i, komissiya a’zosi

Ғозғон шаҳар ҳокимининг
2021 йил 31 декабрдаги
57-5-210-Q/21-сон қарорига
2-илова

Shahar hududidagi yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalarini 2022-yil texnik ko‘rikdan o‘tkazish

JADVALI

№	Tashkilot, korxona, xo‘jalik va muassasalar nomi	Texnik ko‘rik o‘tkazish kunlari	Texnik ko‘rik o‘tkazish vaqti	Texnik ko‘rik o‘tkaziladigan joy	Transportlar soni
1	OOO “GAZGAN STONE”	02.09.2022	10:00	G‘ozg‘on shahar	5
2	OOO “GAZGAN AVTO EKSPRESS”	05.09.2022	10:00	G‘ozg‘on shahar	6
3	“MARMAROBOD” MCHJ	07.09.2022	10:00	G‘ozg‘on shahar	10
4	“MASH’AL BARAKA” X/K	09.09.2022	10:00	G‘ozg‘on shahar	1
5	“G‘OZG‘ON NASLCHILIK” MCHJ	12.09.2022	10:00	G‘ozg‘on shahar	2
6	“GAZGAN NUR” K/K	14.09.2022	10:00	G‘ozg‘on shahar	2
7	“NAMOZJON-GULRUX” X/Ф	16.09.2022	10:00	G‘ozg‘on shahar	1
8	OOO “TIANCHENG STONE”	19.09.2022	10:00	G‘ozg‘on shahar	1
9	“USTO ZIKRIYO” X/F	21.09.2022	10:00	G‘ozg‘on shahar	1
10	“MARMAR STANDART” MCHJ	22.09.2022	10:00	G‘ozg‘on shahar	4
11	SAIDJON FARID F/X	24.09.2022	10:00	G‘ozg‘on shahar	1
12	YASHNARBEK-CHAROSXON X/F	26.09.2022	10:00	G‘ozg‘on shahar	1
13	G‘OZG‘ON SHAHAR OBODONLASHTIRISH BOSHQARMASI	28.09.2022	10:00	G‘ozg‘on shahar	6
14	NUROTA GAZGAN MARMAR A/J	30.09.2022	10:00	G‘ozg‘on shahar	4
15	“RUSHANA” F/X	01.10.2022	10:00	G‘ozg‘on shahar	1
16	USTO ZIKRIYO X/K	03.10.2022	10:00	G‘ozg‘on shahar	1
17	“AMIR XONDAMIR KELAJAGI” X/K	06.10.2022	10:00	G‘ozg‘on shahar	1
18	“RAVSHAN DILSHOD” XICHF	09.10.2022	10:00	G‘ozg‘on shahar	1
19	“HAYIT-RAYIM-NAJOT” X/K	11.10.2022	10:00	G‘ozg‘on shahar	2
20	“MARMAROBOD JILOSI” MCHJ	13.10.2022	10:00	G‘ozg‘on shahar	1
21	“ZAFAR” X/F	15.10.2022	10:00	G‘ozg‘on shahar	1
22	“NAZOKAT – SEVINCH SOXIBJAMOL” X/F	17.10.2022	10:00	G‘ozg‘on shahar	1
23	G‘OZG‘ON SHAHAR AHOLI BANDLIGIGA KO‘MAKLASHISH MARKAZI	19.10.2022	10:00	G‘ozg‘on shahar	1
24	G‘OZG‘ON SHAHAR MAHALLA VA OILANI QO‘LLAB-QUVVATLASH BO‘LIMI	22.10.2022	10:00	G‘ozg‘on shahar	1

25	“GAZGAN-NUR” K/K	24.10.2022	10:00	G‘ozg‘on shahar	1
26	SHAHAR SEO VA JSB BO‘LIMI	25.10.2022	10:00	G‘ozg‘on shahar	1
27	OOO “NAVOI PROCESS STONE” COMPANY"	27.10.2022	10:00	G‘ozg‘on shahar	1
28	G‘OZG‘ON SHAHAR XALQ TA’LIMI BO‘LIMI	29.10.2022	10:00	G‘ozg‘on shahar	1
29	G‘OZG‘ON SHAHAR HOKIMIYATI	31.10.2022	10:00	G‘ozg‘on shahar	6